

**ISLOM ILM-FANI TARIXIDA IMOM AL-BUXORIY SHAXSI
VA ILMIY MEROSSI**

*Raimberdiyeva Gulnora Husan qizi
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi
Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili)
yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy maslahatchi: A. To'xtanazarov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk hadisshunos olim Imom al-Buxoriyning hayot yo'li, uning hadisshunoslik faniga qo'shgan beqiyos hissasi, allomaning islam ilm-fani taraqqiysidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, uning qalamiga mansub asarlarning hozirgi kun hadisshunoslik ilmidagi tutgan o'rni tahli etiladi.

Kalit so'zlar: hadis, sunnat, mo'tabar manbalar, muhaddis, ishonchli to'plam, roviy, sahih hadis, zaif hadis, kunya.

Bugungi zamonda din, ilm-fan va ma'naviyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, ayniqsa, yosh avlodni yot g'oyalar ta'siridan asrash borasida tarixiy shaxslar hayotini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Islom olamining faxri bo'lgan Imom al-Buxoriy (rahmatullohi alayh) hayoti, ilmiy merosi va shaxsiyati nafaqat diniy ilmlar rivoji, balki bugungi zamonaviy jamiyat tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi.

Imom Buxoriy - buyuk muhaddis, islam olimlari orasida eng e'tiborli siymolardan biridir. U to'plagan va tanlab olgan sahih hadislar to'plami bugungi kungacha musulmonlar uchun ishonchli manba bo'lib xizmat qilmoqda. Imom Buxoriy hayotining har bir sahifasi halollik, ixlos, izlanish, iymon va ilmgaga bo'lgan fidoyilik namunasi hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi yoshlar uchun uning bolalikdagi ilmgaga chanqoqligi, murabbiylarining oldida ko'rgan ta'limi, yurtidan chiqib, butun musulmon olamini kezib hadis to'plagani — sabr, matonat va ilmgaga sadoqat timsolidir.

Shuningdek, Imom Buxoriy hayoti bizga ilmiy halollik, insoniy kamtarlik va e'tiqodga sadoqatda namunadir. Bu xususiyatlar bugungi axloqiy inqirozlar davrida, ayniqsa, yoshlarni komil inson etib voyaga yetkazishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U kishining ilm olishdagi sabr-toqati, haqiqatga intilishi va yolg'on hadislarni rad etishdagi jasorati har bir musulmon uchun o'rnak bo'lishi lozim.

Islom olamida muhaddislik ilmida benazir mavqega ega bo'lgan, buyuk alloma **Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy** (milodiy 810-870-yillar, hijriy 194-256-yillar) yoshlidan o'tkir zehn, yuksak idrok va favqulodda yodlash qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turgan. U hijriy **194-yilning Shavvol oyida, ya'ni milodiy**

810-yilda, Movarounnahrning ilm-fan markazi hisoblangan **Buxoro** shahrida dunyoga kelgan[2;33].

Otasi **Ismoil ibn Ibrohim** o‘z davrining salohiyatli hadis ilmidan xabardon insonlardan biri bo‘lib, halol mehnati bilan tirikchilik qilgan, taqvosi bilan tanilgan kishi edi. Uning Imom Malikdan hadis tinglagani va ularni yozib olgani haqidagi rivoyatlar mavjud[1;64]. Bu holat, shubhasiz, Muhammad ibn Ismoilga hadis ilmiga bo‘lgan mehr va qiziqishni meros qilib qoldirgan.

Imom al-Buxoriy hali go‘dakligidayoq otasidan ayrılgan. Tarixiy manbalarda aytılıshicha, otasi vafot etganida u ikki yoki uch yosh atrofida bo‘lgan. Uning onasi esa farzandining tarbiyasiga to‘liq e’tibor berib, mehr va g‘amxo‘rlik bilan unga yo‘l ko‘rsatgan. Shu bilan birga, u bilmeli, dindor va oqil ayol bo‘lib, Muhammad ibn Ismoilning ruhiy va ilmiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shtan.

Shuningdek, tarixiy rivoyatlarga ko‘ra, yoshligida u ko‘z nuridan mahrum bo‘lgan, biroq onasining samimiy va ixlos bilan qilgan duolari sababli Alloh unga yana ko‘rish quvvatini ato etgan[4;9]. Bu voqealarda Buxoriy hayotida ilohiy marhamat va alohida bir mo‘jiza sifatida qaraladi.

Imom Buxoriy yoshlik chog‘idanoq faqat hadis matnlarini emas, balki ularning rivoyat zanjiri — isnodni ham puxta o‘rganishga katta e’tibor qaratgan. Uning mustahkam xotirasi haqida zamondoshlari quyidagicha ta’rif berganlar: “**Imom Buxoriy bir yig‘inda yuzlab hadislarni eshitib, ularni zudlik bilan yod olgan va isnodlari bilan birga aniq ravishda aytib bera olgan.**”[3;71] Ana shu yuksak ilmiy salohiyati unga ming-minglab hadislarni yod olish, ularni saralab yozib chiqish hamda buyuk ilmiy asarlarini yaratishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Imom Buxoriy dastlabki ta’limini Buxoro shahrida olsa-da, ilmga bo‘lgan cheksiz ishtiyoqi uni uzoq sayohatga boshladi. U o‘n olti yoshida haj amallarini ado etish maqsadida safarga chiqqach, **Makka va Madinada** qolib, ilmiy izlanishlarga jiddiy kirishdi. Ayniqsa, bu ikki muqaddas maskanda zamonasining mashhur hadis olimlaridan saboq olib, ularning tajribasidan bahramand bo‘ldi. Xususan, Madinada hadislarni isnodlari bilan tartiblash, rivoyat zanjirlarini ajratib ko‘rsatish va tanqidiy yondashuv asoslarini chuqr o‘rgandi. Shu yerda u bir necha yil yashab, o‘zining ilk asari — “**Tarix al-Kabir**”ni yozishni boshladi va bu nodir asarni 18 yoshida yakunladi[6;98].

Ilm yo‘lida Imom Buxoriy ko‘plab o‘lkalarga safar qilgan. U **Hijoz, Basra, Kufa, Bag‘dod, Sham, Misr, Marv, Nishapur** va **Ray** kabi ilm markazlariga tashrif buyurib, u yerda hadis ilmini chuqr o‘rgandi. Ushbu sayohatlari davomida u minglab roviylardan hadislarni eshitib, ulardan ilm oldi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, u 1000 dan ortiq ustozdan saboq olgan bo‘lib, ularning orasida hadis ilmining yetuk namoyandalari — **Yahyo ibn Ma’in, Ali ibn al-Madiniy** va **Ahmad ibn Hanbal** kabi buyuk zotlar ham bo‘lgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Imom Buxoriy eshitgan hadislar soni **600 mingdan ortiq** bo‘lgan. Shunga qaramay, u o‘zining eng mashhur asari — “*Al-Jome’ as-Sahih*”ga faqat ishonchli deb topilgan **7 275** ta hadisni kiritgan bo‘lib, ularning **2 602** tasi takrorlanmagan, yagona matnlardir. Har bir hadisni bu nodir kitobga yozishdan oldin Imom Buxoriy tahoratdan ko‘ra chuqurroq poklanish — g‘usl qilib, ikki rakat nafl namoz o‘qigan va Rabbisidan to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishini, ilhom va yordam berishini so‘ragan[5;46]. Bu holat uning nafaqat ilmiy ehtiyyotkorligi, balki chuqur ruhiy-axloqiy yondashuvini ham yaqqol namoyon etadi.

Imom Buxoriy xorijdagi ilmiy safarlarini yakunlab, Buxoroga qaytgach, bu yerda hadis ta’limini yoyishni boshlaydi. Biroq uning bu boradagi faoliyati Buxoro amiri **Xolid ibn Ahmad Zuhliy** tomonidan ma’qullanmaydi. Natijada u tug‘ilib o‘sgan diyorini tark etishga majbur bo‘ladi va dastlab **Poykentga**, so‘ng esa **Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘iga** ko‘chib boradi.

Ilmgaga butun umrini bag‘ishlagan bu buyuk muhaddis, faqat o‘zining emas, boshqalar — talaba va muhtojlar kamoloti uchun ham xizmat qilgan. U tijoratdan kelgan daromadining har oy besh yuz dirhamini faqirlar va ilm talabalariga ehson qilib turgan. Buxoriy shaxsiy hayotda ortiqcha sarf-xarajat va dabdabaga ruju’ qo‘ymagan, kamtar va soddadil inson bo‘lgan.

U hayoti davomida hadislarni to‘plash, tartibga solish va sahihligini aniqlashda nihoyatda jiddiy yondashgan. Hadis rivoyatchilarining hayoti, yashagan hududi, tug‘ilgan va vafot etgan yillari, o‘zaro uchrashuvlari kabi tafsilotlarni o‘rganish orqali ilmiy tekshiruv olib borgan. O‘z so‘zlariga ko‘ra, u **600 ming** hadisni yoddan bilgan.

Imom Buxoriy **20 dan ortiq** asar yaratgan bo‘lib, ularning ba’zilari hozirgi kungacha yetib kelgan. Ulardan eng mashhuri — “*al-Jome’ as-Sahih*” (“Ishonchli to‘plam”) bo‘lib, ushbu hadislar to‘plami ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. Mazkur nodir asar o‘zbek tiliga ham tarjima qilinib, 1991–1996-yillar oralig‘ida 4 jildda va 2008-yilda esa 2 jildlik shaklda chop etilgan.

Imom Buxoriy tomonidan tuzilgan “*al-Adab al-Mufrad*” (“Adab durdonalari”) nomli asar — yuksak axloqiy-tarbiyaviy qiymatga ega bo‘lgan nodir hadislar to‘plamidir. Unda jami 1322 ta hadis va xabar jamlangan bo‘lib, bu asar dunyo bo‘ylab bir necha bor nashr etilgan. Ushbu to‘plamning o‘zbek tilidagi tarjimasi ilk bor 1990-yilda Toshkent shahrida chop etilgan.

Imom Buxoriy roviylarning kunyalariga bag‘ishlab yozgan “*Kitob al-Kunya*” (“Kunyalar haqida kitob”) asari 1940-yili Hindistonda bosmadan chiqqan. Hadis rivoyatchilarining tarjimai hollarini o‘z ichiga olgan “*at-Tarix al-Kabir*” (“Katta tarix”) esa **Turkiyada** 9 jildda nashr etilgan. Mazkur asarning ayrim qo‘lyozma nusxalari **Haydaroboddagi** kutubxonada saqlanmoqda.

Shuningdek, Buxoriy qalamiga mansub yana bir muhim manba — “*at-Tarix as-Sag‘ir*” (“Kichik tarix”) bo‘lib, bu hadis tarixiga oid muhim ilmiy manbalardan sanaladi. Mazkur asar *Hindiston* va *Qohira* shahlarida chop etilgan.

Imom Buxoriy “*Kitob al-Favoid*” (“Foydali ashyolar haqida kitob”), “*al-Jome’ al-Kabir*” (“Katta to‘plam”), “*Xalq af’ol al-‘ibod*” (“Alloh bandalarining amallari haqida”), “*al-Musnad al-Kabir*” (“Katta musnad”), “*at-Tafsir al-Kabir*” (“Katta tafsir”) hamda “*Kitob al-Hiba*” (“Sovg‘a-ehsonlar haqida kitob”) kabi ko‘plab asarlar muallifi hamdir[3;51]. Ulardan ayrimlari hozirgi kungacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, ba’zilari dunyoning turli davlatlaridagi kutubxonalarda saqlanmoqda.

Imom Buxoriyning boshqa asarlari orasida Qur’on ta’viliga bag‘ishlangan “*Tafsir al-Qur’on*” (“Qur’on tafsiri”) kitobi ham alohida e’tiborga loyiqidir. Uning ilmiy merosi butun muslimon olamidagi madrasa va oliy diniy ta’lim muassasalarida Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatlariga oid asosiy manba va qo‘llanma sifatida keng foydalaniladi[5;72].

Xulosa qilib aytganda, Imom Buxoriy hayoti va ilmiy merosini o‘rganish nafaqat diniy bilimlarimizni boyitadi, balki bugungi murakkab dunyoda to‘g‘ri yo‘lni tanlash, ijtimoiy hayotda barqarorlikni saqlash, yosh avlodni yuksak ma’naviyatda tarbiyalashda ham muhim vositaga aylanadi. Shu sababli, Imom Buxoriy siyratini o‘rganish bugungi kunda nihoyatda dolzarb va zarurdir.

Zamonamizda ma’naviy bo‘shliqlardan foydalaniib, turli ekstremistik oqimlar yoshlarga yolg‘on aqidalarni singdirishga urinmoqda. Bunday sharoitda Imom al-Buxoriy merosini chuqur o‘rganish, uning ishonchli hadislар asosida tuzgan ilmiy me’zonlarini anglash, yoshlarni sog‘lom e’tiqodda tarbiyalashda beqiyos o‘ringa ega. Uning tanqidiy yondashuvi, hadislarni qabul qilishdagi qat’iy shartlari bugungi ilmiy tahlil metodologiyasi uchun ham o‘ziga xos namuna bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alimov U. Sunnat va hadis. – T.: Sharq, 2012.
2. Azami, Muhammad Mustafa. Studies in Hadith Methodology and Literature. American Trust Publications, 1977.
3. D.Muratov. Hadis to‘plamlarining qiyosiy tahlili. O‘quv qo‘llanma. – T.: Kompleks print, 2019. – 144 b.
4. Ibn Kathir. Al-Bidayah wa al-Nihayah, jild 11. Dimashq: Dar Ibn Kathir, 1997.
5. Obidov R. Sunnat, hadis va muhaddislar. – T.: Mavarounnah, 2012.
6. Solih, M. M. Hadith Literature: Its Origin, Development and Special Features, Islamic Texts Society, 1999.